

# "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida tadbir tashkil etildi

// 15.12.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yong-in-xavfsizligi-oyligi-doirasida-tadbir-tashkil-etildi>



"Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida tadbir tashkil etildi.



Xabaringiz bor yurtimiz bo'ylab favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" e'lon qilingan.



Bugun "Maxam-Chirchiq" AJ ishchi-xodimlari uchun targ'ibot va tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirni

"Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruvi raisi-Saydaxmedov Xotam Anvarovich ochib berdi.



Tadbirda Jamiyat ishchi-xodimlari uchun favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda uni bartaraf etish, jabrlanganlarni qutqarish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, sodir bo'lgan yong'inni o'chirish bo'yicha o'quv mashqlari hamda texnikalar namoyishi bo'lib o'tdi.